

This is not registered version of TotalDocConverter

Rostni ayta: nafaqaga yonilash de sarafva qo'yami yo "xomtalash", deymi... ancha o'ylandim. "Nega?" deysizmi? Keling, bir boshdan so'zlay...

Toponim komissiya raisi qon bosimi oshib shifoxonaga tushib qolgach, mana shu tashvishlar mening boshimga tushib turibdi-da. Endi angelayapman, bechoraning qon bosimi bekorga oshmagan ekan. Kimdir majlis kuni kelib falon ko'chaga falon nomni beraylik desa, bir ovozdan ma'qullab ketaverar ekanmiz. Ertalab telefon jiringlab qoldi.

- Petrovskiy ko'chasiga Shunqoriy nomini beraylik.

- Kim ekan u Shunqoriy?

- Tuman ro'znomasida turkum she'ri chiqqan mahalliy shoir.

- E-e, unaqalar ko'p.

- Berdisini aytguncha shoshmang. Mardon Paradaevichning pochchalari-ya!

- Unaqa bo'lsa nomini kattaroq ko'chaga berish kerak ekan, - dedim kesatib.

- Bu ko'chaga boshqa xaridorlar ham bor, o'ylab ko'rish kerak, - dedi komissiya a'zolaridan biri ertasiga yig'ilishganimizda.

- Maktabdagilar bir o'qituvchining nomini qo'ysak deb taklif qilishyapti.

- Ie, qo'ysalaring-chi, nima ularga ko'cha ko'chada qo'ptimi?

- Nima qilsak ekan?

- Hayronman.

- O'tirasizmi, - dedi bitta shumrog'i. - Kim oshdi savdosi qilib qo'yaqolmaysizmi?

- Hozir hazilning vaqti emas, - dedim xunob bo'lib. - Ertagacha o'ylab takliflaringni aytinglar.

Bekor qilgan ekanman. Ertasigacha yana qanchasi boshimni qotirdi.

- Bitta qo'chqorni boqib qo'yibman. Oyog'ingiz tagiga so'yaman, aka. Shu ko'cha qo'ldan chiqib ketmasin. Otamiz nomini berdirsangiz bizdayam qolib ketmaydi.

- Ko'chaning o'ng betiga boshqa, chap betiga boshqa nom bersak bo'lmaydimi-a? - dedi a'zolaridan biri.

- Men hal qilmayman. Bizning xulosamiz bir taklif kuchiga ega, xolos, - deyman holdan toyib.

- Mayli, siz shu taklifni to'g'rilang, u yog'ini bizga qo'yib bering.

Uyga kelsam, keliningiz yana bir g'alvani boshlab o'tiribdi. Qaynotamiz nomini abadiylashtirish masalasi...

Tomog'imga bir narsa tiqilganday bo'ldi.

- Bu yog'i sizga bog'liq emish. Bir ilojini qiling. El-yurt oldida tilimiz qisq bo'lmasin.

Nima deb g'o'ldiraganimni o'zim ham bilmayman. Yechinib "yuz ellik"ni otib, sovib qolgan ovqatni apil-tapil tushirdim-da, boshimni o'rab yotib oldim.

... Tushimda hamma ko'chalar, maktablar, bog'chalar, dala shiyponlari, tijorat do'konlariga nom qo'yib bo'linganmish. Xo'jalik bo'limlari, brigada paykallari, fermalar, yemakxonalar nomlari kimlarning nomida bo'lishi aniqlab bo'linganmish. Faqat nom berilmagan bitta tepalik qolganmish. "Hech kimga bermayman bu tepalikni, o'zimning nomimni qo'yaman", deb qichqirayotgan emishman...

Tashqarida nimadir qarsillab cho'chib uyg'onib ketdim. Boshim vang yotgandim, radio diktoring o'vozi e'tiborimni tortdi. Joylarga nom qo'yish tartibi haqida yangi qaror chiqibdi. Komissiyamiz tarqatilib yuboriladigan bo'pti.

Yengil nafas olib, asta o'rnimdan turdim.